




2021-yil yanvar-dekabr



2021-yilning yanvar-dekabrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi

Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Dastlabki ma'lumotlar

➤ 2021-yilning yanvar-dekabrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi 71,8 % ni tashkil etdi.

➤ Kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga 13,8 birlikni tashkil qildi.

➤ 2021-yilning yanvar-dekabrida 7111 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,5 foizga kam.



2021-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Savdo
38,3 %

Sanoat
28,5 %

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
10,5 %

Qurilish
6,3 %

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 2726 ta, sanoatda 2028 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 747 ta, qurilishda 447 ta, yashash va ovqatlanishda 305 ta, tashish va saqlashda 145 ta tashkil etilgan.

**Yanvar-dekabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining
asosiy ko'rsatkichlari**

| | O'lchov birligi | 2020- y. | 2021- y. | Farqi (+;-) |
|---|--------------------|----------|----------|----------------|
| Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni | birlikda | 31683 | 34999 | 3316 |
| Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni | birlikda | 7684 | 7111 | -573 |
| <i>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushlari:</i> | | | | |
| YAHM | % | 69,9 | 71,8 | 1,9 |
| Sanoat | % | 20,1 | 27,1 | 7,0 |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | % | 97,8 | 97,6 | -0,2 |
| Investitsiya | % | 59,8 | 54,8 | -5,0 |
| Qurilish | % | 93,3 | 95,3 | 2,0 |
| Chakana savdo | % | 88,5 | 90,3 | 1,8 |
| Xizmatlar | % | 67,7 | 65,4 | -2,3 |
| Yuk tashish | % | 91,4 | 93,0 | 1,6 |
| Yuk aylanmasi | % | 67,9 | 67,2 | -0,7 |
| Yo'lovchi tashish | % | 96,6 | 97,9 | 1,3 |
| Yo'lovchi aylanmasi | % | 95,9 | 96,3 | 0,4 |
| Eksport | % | 44,5 | 36,6 | -7,9 |
| Import | % | 12,9 | 13,1 | 0,2 |



YAHM
71,8%

Savdo
90,3%

Sanoat
27,1%

Qurilish
95,3%

Investitsiya
54,8%


Eksport
36,6%

Xizmatlar
65,4%


Import
13,1%

**Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

| | 2020- yil yanvar-dekabr | 2021- yil yanvar-dekabr | (+;-) |
|-------------------------|----------------------------|----------------------------|-------------|
| Andijon viloyati | 7684 | 7111 | -573 |
| <i>shaharlar:</i> | | | |
| Andijon sh. | 1925 | 1499 | -426 |
| Xonobod sh. | 125 | 206 | 81 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Oltinko'1 | 400 | 310 | -90 |
| Andijon | 489 | 633 | 144 |
| Baliqchi | 446 | 583 | 137 |
| Bo'ston | 291 | 229 | -62 |
| Buloqboshi | 336 | 252 | -84 |
| Jalaquduq | 408 | 328 | -80 |
| Izboskan | 384 | 323 | -61 |
| Ulug'nor | 174 | 145 | -29 |
| Qo'rg'ontepa | 399 | 308 | -91 |
| Asaka | 681 | 596 | -85 |
| Marhamat | 351 | 428 | 77 |
| Shahrixon | 556 | 477 | -79 |
| Paxtaobod | 358 | 342 | -16 |
| Xo'jaobod | 361 | 452 | 91 |



**2021- yil yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona
va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da**



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida tuman va shaharlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko‘p ulush Andijon shahri - 21,1%, Andijon tumani - 8,9%, Asaka tumani - 8,4%, Baloqchi tumani 8,2%, Shahrixon tumani - 6,7%, Xo‘jaobod tumani - 6,4%, Marhamat tumani - 6,0%, Paxtaobod tumani - 4,8% ga tegishli.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

| | 2020- yil yanvar-dekabr | 2021- yil yanvar-dekabr | farqi (+;-) |
|---|----------------------------|----------------------------|----------------|
| Jami | 7684 | 7111 | -573 |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 901 | 747 | -154 |
| Sanoat | 2438 | 2028 | -410 |
| Qurilish | 440 | 447 | 7 |
| Savdo | 2718 | 2726 | 8 |
| Tashish va saqlash | 219 | 145 | -74 |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 280 | 305 | 25 |
| Axborot va aloqa | 129 | 150 | 21 |
| Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | 150 | 156 | 6 |
| Boshqa faoliyat turlari | 409 | 407 | -2 |

***Ma’lumot uchun: 2021- yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari
bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘p salmog‘i,
birlikda:***




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda

| | 2020- yil yanvar-dekabr | 2021- yil yanvar-dekabr | Farqi (+;-) |
|--------------------|----------------------------|----------------------------|----------------|
| Andijon sh. | 1925 | 1499 | -426 |
| Andijon | 489 | 633 | 144 |
| Asaka | 681 | 596 | -85 |
| Baliqchi | 446 | 583 | 137 |
| Shahrixon | 556 | 477 | -79 |
| Xo'jaobod | 361 | 452 | 91 |
| Marhamat | 351 | 428 | 77 |
| Paxtaobod | 358 | 342 | -16 |

2021- yilning yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Andijon shahrida - 1499 tani tashkil etdi.



Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda






2021- yil yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 13,8 birlikni tashkil etdi.



Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga ko'ra*




2021- yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Ulug'nor tumanida 24,5 birlik, Andijon shahrida 24,3 birlik, Xo'jaobod tumanida 19,1 birlik, Xonobod shahrida 17,4 birlik, Bo'ston tumanida 17,2 birlik, Baliqchi tumanida 13,5 birlik, Asaka tumanida 13,0 birlikni tashkil etgan. Shahrixon tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib, 9,2 birlikka to'g'ri keldi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)





**2021- yilning yanvar-dekabrida tuman va shaharlar bo'yicha
faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda)***



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



2021- yilning yanvar-dekabrida har 1000 aholiga to‘g‘ri keladigan kichik biznes subyektlari soni eng ko‘p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda *



**Faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda)**

Eng yuqori ko‘rsatkich

- Ulug‘nor tumani
- 24,5 birlik.

O‘rtacha ko‘rsatkich

- Baliqchi tumani
- 13,5 birlik.

Eng past ko‘rsatkich

- Shahrixon tumani
- 9,2 birlik.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shtigan holda)



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagи ulushi dinamikasi, (yanvar-dekabr holatiga ko'ra, % da)

2021- yilning yanvar-dekabrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagи ulushi 71,8 % ni tashkil qildi. (2020- yilning yanvar-dekabrida 69,9 %).

YAHMning o'tgan yilga nisbatan ko'payishi yirik korxonalar ulushining pasayishi bilan izohlanadi.

69,0%

2019- y.

69,9%


2020- y.

71,8%

2021- y.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



**2021- yilning yanvar-dekabrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
subyektlarining tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy
tarmoqlaridagi ulushi, (%) da**

| | Sanoat | Qurilish | Xizmatlar | Investitsiya |
|-------------------------|-------------|-------------|-------------|--------------|
| Andijon viloyati | 27,1 | 95,3 | 65,4 | 54,8 |
| <i>shaharlar:</i> | | | | |
| Andijon sh. | 30,9 | 93,2 | 63,8 | 57,6 |
| Xonobod sh. | 43,0 | 98,4 | 77,1 | 48,9 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | |
| Oltinko‘l | 72,9 | 99,9 | 70,4 | 82,1 |
| Andijon | 81,3 | 96,9 | 70,1 | 40,6 |
| Baliqchi | 40,0 | 98,7 | 68,5 | 84,9 |
| Bo‘ston | 63,0 | 87,4 | 74,7 | 36,6 |
| Buloqboshi | 100,0 | 100,0 | 64,0 | 87,6 |
| Jalaquduq | 70,2 | 80,7 | 68,6 | 87,5 |
| Izboskan | 37,8 | 100,0 | 67,5 | 66,8 |
| Ulug‘nor | 63,8 | 80,1 | 79,9 | 77,4 |
| Qo‘rg‘ontepa | 44,2 | 97,8 | 58,8 | 79,9 |
| Asaka | 3,3 | 100,0 | 58,7 | 24,2 |
| Marhamat | 67,4 | 100,0 | 69,6 | 80,0 |
| Shahrixon | 79,4 | 100,0 | 59,1 | 58,0 |
| Paxtaobod | 48,4 | 100,0 | 60,5 | 75,7 |
| Xo‘jaobod | 70,8 | 100,0 | 62,2 | 72,7 |

Tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi eng ko‘p:

Sanoatda-

Buloqboshi (100,0 %),
Andijon (81,3 %),
Shahrixon (79,4 %),
Oltinko‘l (72,9 %),
Xo‘jaobod (70,8 %),
Jalaquduq (70,2 %) va
Marhamat (67,4 %)
tumanlarida.


Qurilishda-

Buloqboshi (100,0 %),
Shahrixon (100,0 %),
Xo‘jaobod (100,0 %),
Marhamat (100,0 %),
Paxtaobod (100,0 %),
Izboskan (100,0 %)
va Asaka (100,0 %)
tumanlarida.


Xizmatlarda-

Ulug‘nor (79,9 %),
Xonobod sh (77,1%),
Bo‘ston (74,7 %),
Oltinko‘l (70,4 %),
Andijon (70,1 %),
Marhamat (69,6 %)
va Jalaquduq (68,6%)
tumanlarida.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 358,2 million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 36,6 foizini tashkil etdi.





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagagi ulushi, % da



2021- yil yanvar-dekabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Buloqboshi tumanida - 100,0 %, Ulug'nor tumanida - 89,6 %, Marhamat tumanida - 83,5 %, Jalaquduq tumanida - 80,5%, Xonobod shahrida - 80,0%, Andijon tumanida - 78,2%, Oltinko'1 tumanida - 72,4% ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich esa Baliqchi tumanida - 5,0% ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 286,8 million AQSH dollarini yoki umumiy import hajmining 13,1 foizini tashkil etdi.




2021- yil yanvar-dekabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida - 100,0 %, Paxtaobod tumanida - 97,4%, Izboskan tumanida - 93,6%, Oltinko'l tumanida - 92,6%, Jalaquduq tumanida - 91,1% va Shahrixon tumanida - 89,5% ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich esa Asaka tumanida - 1,6% ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan 9739,5 milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



2021- yilning yanvar-dekabrida tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, (mlrd. so‘m)




Tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Andijon shahri (1820,9 mlrd. so‘m), Shahrixon tumani (841,2 mlrd. so‘m), Xonobod shahri (823,5 mlrd. so‘m), Andijon (802,2 mlrd. so‘m) va Xo‘jaobod (800,6 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Bo‘ston tumanida (187,7mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo‘lib qolmoqda.



2021- yil yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 27,1 foizni tashkil etdi.



2021- yil yanvar-dekabr holatiga tuman va shaharlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Tuman va shaharlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Buloqboshi (100,0%), Andijon (81,3%), Shahrixon (79,4%), Oltinko‘l (72,9%), Xo‘jaobod (70,8%), Jalaquduq (70,2%) va Marhamat (67,4%) tumanlari tashkil etdi. Asaka tumanida (3,3%) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi eng past bo‘lib qolmoqda.




2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 16004,5 mlrd. so‘mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 90,3 foizini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 110,1 foizni tashkil qildi.





2021- yilning yanvar-dekabrida tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o‘sish sur’ati



Tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Andijon shahri (4383,6 mlrd. so‘m), Shahrixon tumani (2143,9 mlrd. so‘m), Asaka tumani (1567,7 mlrd. so‘m) va Qo‘rg‘ontepa tumani (1092,9 mlrd. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keladi.




2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 5354,4 mlrd. soʻnni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 95,3 foizini tashkil etdi. Oʼsish surʼati 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 110,1 foizni tashkil qildi.




Tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes subyektlarining eng koʻp bajarilgan qurilish ishlari hajmi Andijon shahri (1797,6 mlrd. soʻm), Andijon tumani (547,1 mlrd. soʻm), Shahrixon tumani (388,3 mlrd. soʻm), Oltinkoʻl (337,1 mlrd. soʻm) hamda Paxtaobod tumanlarida (284,3 mlrd. soʻm) qayd etildi.


2021-yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan 9784,2 mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmining 65,4 foizini tashkil qildi. 2020-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 117,0 foizga o‘sdi.



2021-yilning yanvar-dekabrida tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmatlar sohasi hajmi va o‘sish sur’ati




Tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Andijon shahri (3203,4 mlrd. so‘m), Andijon tumani (603,3 mlrd. so‘m), Baliqchi tumani (548,9 mlrd. so‘m), Asaka tumani (543,9 mlrd. so‘m) va Shahrixon (505,0 mlrd. so‘m) tumani hissasiga to‘g‘ri keladi.




2021-yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishining umumiylajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 93,0 foizni tashkil etdi. 2020-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,8 foizni tashkil qildi.

2021-yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiylajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 67,2 foizni tashkil etgan bo'lib, 2020-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 105,8 foizni tashkil qildi.




2021-yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiylajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,9 foizni tashkil etib, bu esa 2020-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 6,2 foizga ko'payishiga olib keldi.

2021-yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiylajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 96,3 foizni tashkil etib, 2020-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 5,6 foizga ko'payish kuzatildi.






Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2021- yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjud hamda yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 902 ta respondentlar ishtirok etdi.



2021- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - 5,9% (53 ta), sanoatda - 24,3% (219 ta), qurilishda - 10,1% (91 ta), savdoda - 36,8% (332 ta), xizmatlar sohasida - 22,9% (207 ta)ni tashkil etdi.


* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq, mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha.



2021- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2021- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2021- yilning IV choragida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilish sohasida 49,5% ni, xizmat sohasida 47,8% ni, savdo sohasida 35,8% ni va sanoat sohasida 35,2% ni tashkil etdi.

Shu bilan birga iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdo sohasida 56,9%, sanoat sohasida 56,6%, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 54,7% va xizmat sohasida 45,4% ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 13,2% ni, sanoat sohasida 8,2% ni va savdo sohasida 7,2% ni tashkil etdi.




2021- yilning IV choragida tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2021- yilning IV choragida tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin uch oydagisi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatini yaxshilanishga ishongan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi qurilish sohasida 60,4 %, xizmat sohasida 48,8 %, savdo sohasida 46,1 % va sanoat sohasida 43,8 % tashkil etdi.

Shu bilan birga iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi sanoat sohasida 49,8 %, savdo sohasida 49,4 %, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 49,1 % va xizmat sohasida 46,9 % tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy vaziyatni yomonlashishiga ishongan korxonalarining eng ko‘p ulushi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 11,3 %, sanoat sohasida 6,4 %, savdo sohasida 4,5 % va xizmat sohasida 4,3 % ni tashkil etdi.



2021- yilning IV choragida tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagisi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da

